

GIPOTIREOZ BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA VEGETATIV ASAB TIZIMI BUZILISHLARINING XUSUSIYATLARI

Shermatova Nilufar Abdugaffarovna

Nevrolog shifokor, Akademik Yo.X. Turakulov nomidagi

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

Saidxo'jayeva Saida Nabievna

Neonatologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot

fanlari doktori, dotsent Toshkent davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18402705>

Dolzarbligi.

Hozirgi davrda gipotireoz endokrinologik amaliyotda eng ko'p uchraydigan patologiyalardan biri hisoblanadi. Gipotireoz deganda qalqonsimon bezning tireoid gormonlari yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan patologik holat tushuniladi. Ushbu holat gormonlar ishlab chiqarilishining pasayishi yoki ularning organizmda tez parchalanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy qarashlarga ko'ra, gipotireozni faqat endokrin kasallik sifatida baholash mumkin emas, chunki qalqonsimon bez gormonlari barcha a'zolar va tizimlarning optimal faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Ularning yetishmovchiligi turli xil asoratlarning rivojlanishiga olib keladi, ular orasida ko'plab mualliflar fikricha, asab tizimi tomonidan yuzaga keladigan patologik jarayonlar yetakchi o'rinni egallaydi [1]. Ushbu buzilishlar gipotireozning dastlabki bosqichlaridayoq shakllanib, asab tizimining turli bo'limlarini qamrab olishi mumkin. Jumladan, gipotireozning salbiy ta'siriga eng sezgir "nishon"lardan biri vegetativ asab tizimi (VAT) bo'lib, unga oid o'zgarishlar aksariyat hollarda gipotireoz bilan og'rikan deyarli barcha bemorlarda kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, qalqonsimon bez patologiyalari bilan bog'liq vegetativ asab tizimi buzilishlariga doir dalillarga qaramay, XX asrning 70–80-yillarigacha ayrim mualliflar qalqonsimon bez faoliyatiga vegetativ asab tizimining ta'sirini to'liq inkor etganlar [2].

Vegetativ disfunktsiyalarning o'ziga xos jihati ularning keng qamrovliligi va sekin-asta rivojlanishidir. Shu bilan birga, ko'pchilik hollarda bu buzilishlar yengil darajada bo'lib, simpatik yo'nalishning ustunligi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu belgilar qatoriga quyidagilar kiradi: ayniqsa qo'l va oyoq panjalarida terining qurishi; kaft va tovonlarda terlashning kuchayishi; dermografizmning oshishi; qo'l va oyoqlarning simmetrik sianozlanishi. Ayrim tadqiqotlarda esa gipotireoz fonida vahima xurujlari (panik atakalar) rivojlanishi ham qayd etilgan [3,4].

Tadqiqot maqsadi.

Gipotireoz bilan bog'liq vegetativ buzilishlarning zamonaviy qarashlarini aks ettiruvchi adabiyotlarni o'rganish.

Material va tekshiruv usullari.

Mazkur ishda klinik kuzatuvlar, ilmiy tadqiqotlar hamda nashr etilgan ilmiy maqolalar natijalari tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama.

Gipotireozning klinik ko'rinishlari va ularning xilma-xilligi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Shunga qaramay, mazkur muammo hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Buning asosiy sababi shundaki, shakllangan gipotireoz organizmning deyarli barcha a'zolari va tizimlarini qamrab oluvchi ko'plab asoratlarni keltirib chiqaradi.

Gipotireoz oqibatlari orasida asab tizimi, xususan vegetativ asab tizimi faoliyatining buzilishi yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, vegetativ asab tizimi ushbu kasallikning salbiy ta'siriga eng sezgir tizim hisoblanadi. Shu sababli, gipotireozda vegetativ asab tizimining funksional holatini chuqur o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda, chunki vegetativ tizim organizm ichki muhitining barqarorligini va moslashuvchan reaksiyalarini ta'minlovchi asosiy regulyator hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarda gipotireozda umumiy nevrologik buzilishlarga oid ma'lumotlar yetarli bo'lsa-da, vegetativ disfunktsiyalarni alohida o'rganishga bag'ishlangan ishlar kam uchraydi.

Shu bois bir qator hal etilmagan savollar mavjud, jumladan: kasallik davomiyligi vegetativ buzilishlar darajasiga qanday ta'sir qiladi? Qalqonsimon bez faoliyatida vegetativ asab tizimining aniq o'rni qanday? Vegetativ buzilishlarni normallashtirish asab tizimining boshqa funksional buzilishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadimi? Shuningdek, vegetativ o'zgarishlarning patogenez mexanizmlari to'liq aniqlanmaganligicha qolmoqda.

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar gipotireoz bilan bog'liq vegetativ asab tizimi buzilishlarini chuqur va har tomonlama o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar yanada mukammal yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Troshina E.A. va boshq. Diffuz eutireoid zob // Amaliy shifokorlar uchun metodik tavsiyalar to'plami. Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining
2. Endokrinologiya milliy tibbiy tadqiqot markazi. Moskva, 2017. — 3–20-betlar.
3. Ushakov A.V. Gipotireoz: mohiyatning buzilishi. 2-nashr, tuzatilgan va to'ldirilgan. Moskva: Doktor A.V. Ushakov klinikasi, 2021. — 112 bet.
4. Veyn A.M., Voznesenskaya T.G., Vorobyeva O.V. Vegetativ buzilishlar: klinikasi, diagnostikasi va davolash. A.M. Veyn tahriri ostida. Moskva: MIA, 2003. — 749 bet.
5. Zharikova A.V. Gipotireozda nevrologik va metabolik buzilishlar // Hayot faoliyatining tibbiy-biologik muammolari. 2013-yil, №1 (9). — 94–102-betlar.